

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Dizayn (kostyum) sohasi neologizmlarining tarjima-dagi xususiyatlari	430
I.Xoldarova, X.Erg'oziyeva	
Ona tili darslarida fonetikani o'rgatish orqali orfografik va orfoepik bilimlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va mashqlarning o'rni	434
K.Turgunaliyeva, D.Mirzayeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi she'rlarning stilistik tahlili	439
Sh.Turg'unov	
O'zbek xalq o'lanlarida etnik mansubiyat ifodasi	442
R.M.Ubaydullayev, U.R.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar maktab o'quvchi yoshlarning morfofunktsional xususiyatlariga bog'liqligini tahlili	447
I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	450
L.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	455
S.Eshonqulova	
Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo'qon adabiy muhitining o'rni	458
H.Dusmatov, M.Husaynova	
O'zbek latifalarida so'z o'yinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari	468
N.Shavilova	
Rus va o'zbek tillarida paronimlarning tasnifi.....	472
M.Xusanova, M.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir	478
M.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar.....	481
D.Sirojiddinova	
Ingliz tilida modal so'zlar muqobillari haqida umumiy qarashlar.....	484
D.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari.....	489
U.Eshmuradov	
Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til o'rganuvchilar tajribasi.....	493
A.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	497
G.Odilova	
Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari	500
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati.....	504
M.Otaboyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarning o'xshash va farqli jihatlari	508
G.Rozikova	
So'z semantik taraqqiyotidagi o'zgarishlar xususida.....	511
Sh.Siddiqova	
O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda obrazlilikni ta'minlovchi semantik-stilistik faktorlar.....	516
N.Usarova	
Tarjima muammosining nazariy jihatlari	520
K.To'xtaeva	
C1 darajadagi talabalarga ingliz tilini o'qitish muammolari.....	524
Z.Usmonova	
Rey Bredberining "Marsga hujum" ("The martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari.....	531
G.Davlyatova, Sh.Artikova	
Ritorik nutqda pleonastik birliklarning foydalanishi	535

O'ZBEK LATIFALARIDA SO'Z O'YINLARINING USLUBIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**METHODOLOGICAL-PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF WORD GAMES IN UZBEK ANECDOTES****МЕТОДОЛОГО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИГРЫ В СЛОВА В УЗБЕКСКИХ АНЕКДОТАХ****Dusmatov Hikmatullo Haitboyevich¹, Husaynova Mahliyo Ma'rufjon qizi²****¹Dusmatov Hikmatullo Haitboyevich**

– Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

²Husaynova Mahliyo Ma'rufjon qizi

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek milliy latifalari va so'z o'yinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari va o'ziga xosligi haqida so'z boradi. So'z o'yinlarining, jumladan latifalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solinadi. Shuningdek, so'z o'yinining jahon tilshunosligining tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi hamda latifalarning paydo bo'lish tarixiga nazar solinadi. Yevropa ilmiy va o'zbek tilshunosligida latifalar matnining o'rganilishiga oid manbalarga e'tibor qaratiladi. Latifalarning bosh qahramoni bo'lmish afandi obrazi bilan bog'liq misollar tahlil qilinadi va xulosalar beriladi.

Abstract

This article talks about the methodological-pragmatic features and uniqueness of Uzbek national anecdotes and puns. The history of the appearance of word games, including anecdotes, is reviewed. Also, the study of word games as a research object of world linguistics and the history of the appearance of anecdotes are reviewed. In European science and Uzbek linguistics, attention is paid to sources related to the study of the text of anecdotes. Examples related to the image of Effendi, the main character of anecdotes, are analyzed and conclusions are given.

Аннотация

В данной статье говорится о методолого-прагматических особенностях и своеобразии узбекских национальных анекдотов и каламбуров. Рассмотрена история возникновения словесных игр, в том числе анекдотов, а также изучение словесных игр как объекта исследования мировой лингвистики и история появления анекдотов. В европейской науке и узбекском языкознании уделяется внимание источникам, связанным с изучением текста анекдотов. Анализируются примеры, связанные с образом Эфпенди, главного героя анекдотов, и делаются выводы.

Kalit so'zlar: so'z o'yini, latifa, kalambur, dialektizm, agnomaziya, umumxalq so'zlari, neologizm, pressupozitsiya, tag ma'no.

Key words: word game, anecdote, pun, dialectism, agnomasia, universal words, neologism, presupposition, subtext.

Ключевые слова: словесная игра, анекдот, каламбур, диалектизм, агномазия, универсальные слова, неологизм, presupposition, корневое значение.

KIRISH

«Til – bu o'yin» o'xshatishidan qadimgi zamonlardan buyon tilshunoslikda keng foydalanilib kelinmoqda. Ferdinand de Sossyur lisonning asosiy kategoriyalarini shaxmat o'yiniga muqobillikda ta'riflaydi (tizimlilik, ahamiyatlilik, qoida va boshqalar). Biroq «lisoniy o'yin» termini nisbatan yaqin yillarda, faylasuf L.Vitgenshteyn ishlarida paydo bo'lib, unga ko'ra, til «o'z qoidalariga ega bo'lgan o'yin» sifatida talqin etildi. Lisoniy o'yinlar – o'z ichki qoidalari va kelishuvlarga bo'ysunuvchi yaxlit va tugal kommunikatsiya tizimlari hisoblanadi. Olimning fikricha, lisoniy o'yin til birliklarining tizimli munosabatlarini maqsadli, ongli ravishda buzishga asoslangan so'zlovchi nutqiy xatti-harakatining muayyan bir turidir. U, asosan, so'zlashuv, ommabop va badiiy nutq uslublariga xosdir. Olimning konsepsiyasida ijodiy yondashuv, nutqiy faoliyatdan iborat lisoniy o'yin subyektiv tarzda shakllantirilgan kognitiv jarayonlar sifatida izohlanadi.

Rus tili stilistikasiga oid ensiklopedik lug'atda «lingvistik ijod sifatida, asosan, jamiyatning madaniy qatlamlariga bo'ysunadi va nutq ifoda etishning asosiy qoidalari bilmaslikdan kelib chiqqan nutq xatosining teskarisidir» deya izohlangan lisoniy o'yin hodisasi jahon tilshunosligida atroflicha o'rganilgan. Bu o'rganishlar til rivojining barcha davrlariga xos bo'lib, o'zaro o'yinli munosabatlar turli sohalarida namoyon bo'lib kelgan. Xususan, «o'yin» termini ko'plab ilmiy sohalar

TILSHUNOSLIK

qatori falsafa, pedagogika, psixologiya va fiziologiya kabi sohalarida namoyon bo'lib, turli aspektda o'zining funksional xususiyatlariga ega bo'lishi ta'kidlangan.

So'z o'yini jahon tilshunosligining tadqiqot obyekti sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslarning diqqat markazidagi lingvostilistik muammoga aylandi. Buning natijasida, ayniqsa, rus tilshunosligida ko'plab ilmiy ishlar maydonga keldi. Amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlarda so'z o'yinlarining muayyan turlari, ulardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, shu jumladan, so'z o'yinlarining nutq uslublari va turli janrlarda qo'llanishini yoritishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, so'z o'yinlari ma'lum bir davr manbalari hamda maxsus bir janrlar misolida yoki biror bir nutq ko'rinishi doirasida ham o'rganildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalq latifalari hajviy mazmundagi matn turlaridan biri bo'lganligi tufayli ko'p vaqtlardan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Latifalar barcha xalqlarga xos badiiy janr turlaridan biri bo'lib, ularning matni jahon tilshunosligida muayyan lingvistik hodisa sifatida ilmiy-nazariy jihatdan nisbatan ancha keng tadqiq etilgan. Biroq latifalar matni o'zbek tilshunosligida haligacha chuqur o'rganilmagan bo'lib, hajviy matnlarning o'rganilishiga doir Sh.Abdurahmonov, H.Dusmatov, Y.Madaliyev kabi tadqiqotchilar ishlarining ahamiyatini ham alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Yevropa ilmida yetarlicha o'rganilgan bir nechta so'z o'yinlari (*igra slov, kalambur*), anekdotlar o'zbek tilshunosligida shu kunga qadar maxsus o'rganilmaganligi, jumladan, latifalarning lingvostilistik jihatlari yoritishga bag'ishlangan ishlar mavjud emasligi, latifalarning ifoda imkoniyatlari, nutqda so'z o'yinlarining usul va vositalari alohida tadqiqot sifatida tekshirilmaganligi bu borada jiddiy tadqiqotlar olib borish lozim ekanligini taqozo etadi.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda matnning stilistik va lingvopoetik jihatlari e'tiborning kuchayganligi natijasida nutqning emotsional-ekspressiv hamda hajviy jihatlari tadqiqotchilar e'tiborini tortdi. Natijada so'z o'yinlari tadqiqiga bag'ishlangan ayrim ishlar maydonga keldi. So'z o'yinlari o'zbek milliy so'z san'ati hisoblangan askiya matni misolida, latifalar kontekstida hamda badiiy nutq ko'rinishida tadqiq etildi. Biroq so'zlovchining yashirin maqsadi, subyektiv munosabati bilan aloqadorlikda yuzaga chiquvchi keng qamrovli lingvostilistik hodisa hisoblangan so'z o'yinlari turli nutq ko'rinishlari misolida maxsus o'rganish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Latifa (arab-mutoyiba, hazil) — xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya. Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Latifalar qahramoni jonli va ta'sirchan so'zlaydigan, hazil mutoyibaga boy, haqiqat va adolatni himoya qiluvchi hozirjavob shaxs. Latifa syujetini qochiriq, kesatik, piching to'la hajviy epizod va holatlar tashkil etadi. Sarguzasht xarakteridagi syujet sodda va lo'nda ifoda etiladi. Latifaning ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston" asarlarida uchraydi. Latifa janri XI asrdan so'ng keng shakllandi va rivoj topdi.

Latifalar xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida tildan tilga o'tib uzoq davrlardan beri yashab kelayotgan kichik nasriy janr sifatida til imkoniyatlaridan juda zukkolik bilan foydalanishni taqozo etadi. Ularda so'zlashuv uslubiga xos oldindan tayyorgarliksiz, ya'ni har bir vaziyat uchun mos til va nutq birliklarini tez topa olish, suhbatdoshning savoliga yoki gapiga nisbatan o'rinli hamda kulgili javob ayta olish qobiliyatiga egalikni talab etadi. "Soyaga urilgan darra" latifasi matnida ham ana shunday vaziyatni kuzatishimiz mumkin:

Afandi vaqtinchalik qozilik qilib turganida ikki kishi da'volashib kirib qolibdi. Ulardan biri Afandiga arz qilib debdi:

– Bu odam tushida mening onamga uylangan emish. Bunga mening haqorat da'voyim bor, taqsir.

– Xo'sh, sen nima deysan, – so'rabdi Afandi ikkinchisidan.

– Ha, rost gap. Men tushimda bu kishining onasini olgan emishman. Tushning e'tibori bo'ladimi, taqsir. Tushga hamma narsa kiraveradi-da, – javob beribdi u.

– Demak, aybingga iqror ekansan. Endi jazolash uchun senga qirq darra uramiz. Shariat hukmi shu, – deb hukm chiqaribdi Afandi.

– Iye, taqsir tushga-ya, – hayron bo'libdi gunohkor.

– Ha, olib chiqing buni tashqariga! Oftobga tikka qilib turg'izib qo'yib, soyasiga qirq darra uringlar! – deb buyuribdi Afandi o'z mulozimlariga.

Mazkur latifa matnidagi kutilmagan favqulodda vaziyat darraning soyaga urilishi haqidagi hukm edi. Latifaning bosh qahramoni Afandi har ikkala tarafni tinglagandan keyin xulosaga kelishi lozim edi. Uning

tabiatiga xos zukkolik va hozirjavoblik latifaning ana shunday kutilmagan yechim bilan yakunlanishiga olib keldi. Latifa xalqimiz o'tmishiga xos bo'lganligi uchun, unda o'sha davr sud tizimi leksikasiga xos til birliklari: *qozi, taqdir, darra, shariat hukmi* kabilar ishlatilgan va shular yordamida uning matniga tarixiylik bo'yog'i singdirilgan. Demak, latifalar matnini lingvostilistik tahlil qilish orqali muayyan bir tarixiy davrga xos til birliklari haqida ma'lumot olish hamda nutqni shakllantiruvchi vosita va usullar haqida bilim hosil qilish imkoniga ega bo'lish mumkin.

Biroq har bir davrda latifalar jamiyat uchun muayyan tarbiya maktabi vazifasini o'tab boradi. Davrlar o'tishi bilan jamiyatdagi ayrim muammolar ham o'z dolzarbligini yo'qotib boradi, shuning uchun latifalarda zamon bilan hamnafaslik ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamnafaslik uning mazmuniga yangidan yangi nutqiy vaziyatlar, nutqiy birliklar va til hodisalarining kiritilishiga sabab bo'ladi. Quyidagi zamonaviy latifalar misolida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Telefon qo'ng'iroqlariga javob bermagan o'g'ilga otasi SMS xabar yozmoqda:

"O'g'lim, bitiruv imtihonlaring qalay o'tdi? Javobingni kutaman".

O'g'ildan otasiga javob kelibdi:

"Dada, xovotir olmang, zo'r topshirdim. Ustozimga juda yoqdi, shuning uchun kuzda yana bir takrorlashimni iltimos qildi".

Yuqoridagi latifa matnida texnika taraqqiyoti bilan bog'liq telefon qo'ng'iroqlari, SMS xabar tushunchasi vositasida bugungi hayotimizga kirib kelayotgan yangi so'z va iboralar haqida ma'lumot olish mumkin bo'lsa, keyingi latifada xalq orasida keng tarqalgan "mujik" varvarizmi yordamida bugungi kundagi ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan salbiy hodisalardan biri haqida o'tkir hajvga asoslangan kulgi yaratilgan:

– Dada, dada, «Mujik» nima degani?

– «Mujik» degani – o'zi ishlab, pul topib, oilasini boqadigan inson!

– Unda katta bo'lsam, men ham oyimga o'xshab «mujik» bo'laman.

Yuqoridagi latifada xalq tilining og'zaki shakliga xos leksik birliklar ishlatilishi uning xalqonaligini ta'minlagan bo'lsa, bola tilidan "mujik" so'zining o'ziga xos ma'noda tushunilganligi kulgili vaziyatni vujudga keltirish bilan bir qatorda tinglovchilar uchun muayyan ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyat kasb etgan. Bu o'rinda "mujik" so'zini o'zbekcha ekvivalenti "erkak" bilan almashtirib bo'lmaydi, chunki unda latifa mazmuniga xos kulgili vaziyat vujudga kelmaydi. Bola nazarida «mujik» degani – o'zi ishlab, pul topib, oilasini boqadigan inson" degan tushuncha shakllanganligi ham uning otasiga shunday javob qaytarishiga asos bo'lgan. Agar "erkak" so'zi bilan almashtirilganda, uning nazarida o'zaro zid tushunchalar paydo bo'lib, tushunmovchilik yuzaga kelgan bo'lar edi. Bu misol yordamida ba'zan latifadagi o'rinli qo'llangan birgina so'z uning butun mazmuniga juda katta uslubiy o'ziga xoslik baxsh etishini ko'rishimiz mumkin.

Lingvostilistikada yuqoridagi kabi tushunarsiz so'zlardan uslubiy maqsadda foydalanish hodisasi **agnomaziya** deb yuritiladi. Agnonim atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, *bilinmagan, tushunarsiz, noma'lum nom* degan ma'noni bildiradi. Quyidagi latifada muallif chiroyli va kulgili so'z o'yinini yaratish uchun agnonimdan mohirona foydalanishini ko'rishimiz mumkin:

Bir biznesmen yigit mahallada yashaydigan bir oqsoqolni uyiga chaqiribdi. Oldinlari uyi to'la odam bo'ladigan yigitga qarab, otaxon asta so'rabdi:

– Ha, bolam, tinchlikmi?

– Tinchlik, otaxon, tinchlik. Shu kichkinagina bankrotcha bo'lib qoldim. Shunga bir duo qilib yuboring, – debdi biznesmen.

*– Omin, iloyo bundan keyin katta-katta **bankrot** bo'lib yurgin, — deb duo qilibdi otaxon!*

Ko'rinadiki, milliy latifalarimiz o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri – askiyadan keyin turuvchi so'z o'yiniga boy janr hisoblanadi. Shu bois, ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, so'z o'yini latifa asosini tashkil etadi va umuman latifani tushunish uchun zarur shart hisoblanadi. Latifalarda lisoniy o'yin shakllanishining asosiy hodisalari polisemiya, omonimiya, paronimiya, sinonimiya, antonimiya, so'z yasovchi vositalar va frozeologizmlar hisoblanadi.

XULOSA

Latifalar o'zbek xalq og'zaki ijodining paydo bo'lish tarixi asrlar qa'riga borib taqaladigan janrlardan biridir. So'z o'yiniga asoslangan mazkur janrning xususiyatlari, asosan, quyidagilarda namoyon bo'ladi: latifalar matni o'zining hajviy-yumoristik mazmuni bilan tinglovchining diqqat-e'tiborini tortadi va undagi yengil hazil-mutoyiba yoki hajviy-zaharxanda kulgi muayyan bir badiiy-estetik maqsadga qaratiladi. Shu maqsadda har bir latifa matnida kulgi yaratishning turli vosita va usullaridan keng foydalaniladi. Ular yordamida kulgili vaziyatlar vujudga keltiriladi va latifa mazmunidan ko'zlangan asosiy maqsad ochib beriladi; latifalarda boshqa badiiy uslubdagi

TILSHUNOSLIK

matnlardagi kabi ko'chma ma'nolilik, shakldoshlik hodisalari asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Ularda leksik va frazeologik birliklarning o'z va ko'chma ma'nosiga asoslangan holda kulgi yaratish hodisasi ko'p uchrab turadi. Latifalar matnini leksik-semantik jihatdan har tomonlama chuqur tahlil etish natijasida tilimizning ma'lum bir davrdagi tarixiy shakllanish jarayoni, til hodisalari, lug'at tarkibi va uning boyish yo'llari, til birliklaridan foydalanish imkoniyatlari haqida muayyan ma'lumotlar olish manbalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Соссюр Ф. де Труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1977. - 206 с. (Saussure F. de Works on linguistics. - M.: Progress, 1977. - 206 p.)
2. Витгенштейн Л. Философские исследования//Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.- М., 1985. -С. - 34. (Wittgenstein L. Philosophical research//New in foreign linguistics. Issue 16. - M., 1985. -S. - 34)
3. Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожинной; члены редколлегии: Е.А.Баженова, М.П.Котурова, А.П.С квородников. - 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011. -С. 696. (Stylistic encyclopedic dictionary of the Russian language. [electronic resource] / ed. M.N. Kozhina; members of the editorial board: E.A. Bazhenova, M.P. Kotyurova, A.P. S kovorodnikov. - 2nd ed., stereotype. - M.: Flinta: Nauka, 2011. -S. 696.)
4. Ходакова Е.П. Каламбур в русской литературе XVIII в. / Е.П. Ходакова// Русская литературная речь в XVIII в.: Фразаологизмы. Неологизмы. Каламбуры. - М.: Наука, 1968. - С. 201-254; Земская Е.А. Речевые приемы комического в советской литературе // Исследования по языку советских писателей/ Е.А. Земская. - М.: Изд-во АН СССР, 1959. - С. 215-278; (Khodakova E.P. Pun in Russian literature of the XVIII century. / E.P. Khodakov // Russian literary speech in the XVIII century: Phraseologisms. Neologisms. Puns. - M.: Nauka, 1968. - S. 201-254; Zemskaya E.A. Speech techniques of the comic in Soviet literature // Studies in the language of Soviet writers / E.A. Zemskaya. - M.: Publishing House of the Academy of Sciences of the USSR, 1959. - S. 215-278)
5. Голев Н.Д. Русский анекдот как игровой текст: внутренняя форма и содержание/ Н.Д. Голев// Человек-коммуникация – текст. Вып. 4 / под ред. А.А. Чувакина. - Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2000. - С. 27-33. (Golev N.D. Russian anecdote as a game text: internal form and content / N.D. Golev// Man - communication - text. Issue. 4 / ed. A.A. Dude. - Barnaul: Alt. un-ta, 2000. - S. 27-33.)
6. Сопова Т.Г. Языковая игра в контексте демократизации художественной речи в последние десятилетия XX века: Автореф. дисс... кан. филол. наук. - Санкт-Петербург, 2007. -С. 22. (Sopova T.G. Language game in the context of the democratization of artistic speech in the last decades of the 20th century: Abstract of the thesis. diss...can. philol. Sciences. - St. Petersburg, 2007. -S. 22)
7. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. -Самарқанд, 2010. -Б. 192; Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. -Самарқанд, 2017. -Б. 152; (Karimov S. Functional stylistics of the Uzbek language. - Samarkand, 2010. -B. 192; Karimov S. Phonetic stylistics of the Uzbek language. Monograph. -Samarkand, 2017. -B. 152;)
8. Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърляти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. автореф. -Тошкент, 2012. -Б. 27.; (Tolanova N. Linguistic and stylistic analysis of artistic arts in the language of Uzbek poetry of the nineties: Filol. science. nomz... diss. autoref. -Tashkent, 2012. -B. 27.;
9. Мамажонов А., Йўлдошева З. Услубшunoslik ва бадий тасвир воситалари. - Фарғона, 2020. -Б.82; (Mamajonov A., Yoldosheva Z. Techniques and tools of artistic representation. - Fergana, 2020. -B.82;)
10. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвоэстик тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. -Тошкент, 2009. -Б. 30.; (Yoldoshev M. Linguopoetic study of the literary text: Philol. science. doc. ... diss. autoref. -Tashkent, 2009. -B. 30;)
11. Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик, лингвокультурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. фалсафа докт. (PhD) ... дисс. -Т., 2017. -Б. 164; (Yoldoshev U. Linguistic, linguocultural characteristics of the translation of humorous texts (in the example of Uzbek folk anecdotes translated into English): Philol. science. doctor of philosophy (PhD) ... diss. -T., 2017. -B. 164;)
12. Суванқулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадийлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. - Тошкент, 2007. -Б. 158; (Suvankulov B. Genre characteristics and artistry of Uzbek folk anecdotes: Filol. science. name ... diss. -Tashkent, 2007. -B. 158;)
13. Мадалиев Я. Туркий халқлар оғзаки ижодида латифа жанри: типологияси, мотивлари, таснифи (ўзбек ва қозоқ латифалари мисолида): Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. - Тошкент, 2021. -Б. 24. (Madaliev Y. Genre of anecdote in the oral works of Turkic peoples: typology, motives, classification (in the example of Uzbek and Kazakh anecdotes): Philol. science. div. doc. (PhD) ... diss. autoref. - Tashkent, 2021. -B. 24)
14. Рустамов И. Сўз яшаш сатҳидаги лисоний ўйин. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. -Жиззах, 2017. -Б. 69-70. (Rustamov I. A language game at the level of word formation. Proceedings of the international scientific and practical conference. -Jizzakh, 2017. -B. 69-70.)
15. Дўсमतov Х. Аския матнининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. - Фарғона, 2018. -Б. 24. (Dosmatov H. Linguistic study of the Askian text: Philol. science. div. doc. (PhD) ... diss. autoref. - Fergana, 2018. -B. 24.)
16. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 1997. -Б. 23. (Abdurakhmanov Sh. Linguistic devices that cause laughter in Uzbek artistic speech: Filol. science. nomz... diss. autoref. - Tashkent, 1997. -B. 23.)
17. Hikmatullo Haitboevich Dusmatov, Mahliyo Husanova. [Some stylistic events expressed in Uzbek anecdotes](#), 2021, 505-b.
18. [NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK LATIFALARI MATNIDAGI AHAMIYATI](#). M. Husaynova - Journal of Integrated Education and Research, 2022-y, 56-b. (THE SIGNIFICANCE OF NEOLOGISMS IN THE TEXT OF UZBEK Anecdotes. M. Husaynova - Journal of Integrated Education and Research, 2022, p. 56)
19. <https://www.litdic.ru/kalambur/>
20. <https://latifa.uz/>